

KUTUBXONA – MILLAT XAZINASI

*Yashnobod tuman axborot-kutubxona markazi
Axborot-kommunikatsiya
texnologiyalari va raqamlashtirish xizmati rahbari
Tahmina Rahimova.*

*"Kutubxona - inson ichki
olami ruhiyatining eng katta
xazinasidir."
(Faylasuf Leybnis)*

Insoniyat tarixida bilim, madaniyat va tafakkur taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan muhim manbalar – bu kutubxonalaridir. Ular faqat kitoblar to‘plami emas, balki xalqning tarixiy xotirasi, ilmiy salohiyati va ma‘naviy dunyosining aksidir. Shu boisdan ham kutubxona har bir millatning bebaho xazinasini sanaladi.

Ilk kutubxonalar juda qadimda, miloddan avvalgi III ming yillikka to‘g‘ri keladi. Bu davrda Mesopotamiya, Misr, Hindiston, Xitoy kabi qadimiy sivilizatsiyalarda kutubxonalar paydo bo‘lib, ular jamiyat taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan.

O‘zbekiston hududida kutubxonachilik an‘analari qadimdan rivojlangan. Xususan, Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyatga katta e‘tibor qaratilib, ulkan kutubxonalar barpo etilgan. Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek kabi ulug‘ allomalar davrida kitoblar ilmiy va badiiy hayotning ajralmas qismiga aylangan.

Tarixiy manbalarga ko‘ra, XX asr boshlarida faqat Buxoro shahrida 13 ta kutubxona va 96 ta qiroatxona mavjud bo‘lgan. Saroy kutubxonalarida 47 500 dan ortiq noyob qo‘lyozmalar va toshbosma kitoblar saqlangan.

Jadidchilik harakati davrida kutubxonalar ma‘rifat tarqatishning asosiy vositalaridan biri bo‘lib xizmat qildi. Jadidlar zamonaviy bilimlarni xalq orasida keng yoyish uchun ommaviy kutubxonalar tashkil etdilar. Bu kutubxonalarda saqlangan asarlar yosh avlodni tarbiyalash, dunyoqarashini shakllantirishda katta o‘rin tutgan.

Bugungi kunda ham kutubxonalar o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Aksincha, zamonaviy axborot texnologiyalari bilan uyg‘unlashgan holda yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 13-yanvar va 13-sentyabrda kitobxonlikni rivojlantirishga qaratilgan qaror va farmoyishlar qabul qilindi. Ushbu hujjatlar asosida yurtimizda kitob mahsulotlarini nashr etish, tarqatish va kitobxonlik madaniyatini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

Shuningdek, 2019-yil 19-martda “5 muhim tashabbus” dasturi e‘lon qilinib, unda yoshlar orasida kitobxonlikni targ‘ib qilish alohida yo‘nalish sifatida ko‘rsatildi.

Joylarda “Bolalarga ma’rifat ulashib” va “Bolalarga kitob ulashing” kabi targ’ibot tadbirlari o’tkazildi. Bu esa kutubxonalar faoliyatini jonlantirishga, yoshlar orasida kitob o’qish madaniyatini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Bugun elektron kutubxonalar, mobil ilovalar orqali o’quvchilar dunyoning istalgan nuqtasidan kitoblarga osongina ega bo’lish imkoniga egalar. Bu esa kutubxonalarning raqamli shaklda ham mavjud bo’lishini taqozo etmoqda.

Kutubxona – bu faqatgina kitoblar joylashgan bino emas. U millatning ma’naviy poydevori, kelajak avlod uchun bilimlar manbai, ruhiyat va tafakkur xazinasini hisoblanadi. Har bir yosh kitobxon kutubxonaga tashrif buyurib, o’z tafakkurini boyitishi, kelajakka intilishi zarur. Yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek: “Kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma’naviyatga erishib bo’lmaydi.” Shu bois, kutubxonalar faoliyatini rivojlantirish va yoshlar orasida kitobxonlikni targ’ib etish — kelajagimizga eng katta sarmoya bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Karimov, I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Bosh tahririyati, 2000–2005.
3. Toshmuhamedov, B. Kutubxona va kitobxonlik tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012.
4. Internet manbalari
5. Qodirov, Z. Kutubxona ishi asoslari. – Toshkent: Ilm-Ziyo, 2021.